



**AFRIG‘IYLAR DAVRIDA XORAZM VOHASIDA HUNARMANDCHILIK VA
MODDIY MADANIYAT: SOPOL BUYUMLAR, TO‘QIMACHILIK VA KUNDALIK
HAYOT (V–IX ASRLAR).**

<https://doi.org/10.70728/a.series.v08.i02.091>

*Urganch Ranch texnologiyalar universiteti
dotsenti PhD. Matyakubova Shaxodat Xamidjanovna*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Xorazm vohasining ilk o‘rta asrlar (V–IX asrlar) davrida, xususan Afrig‘iylar hukmronligi davrida shakllangan moddiy madaniyat masalalari yoritiladi. Asosiy e‘tibor sopol buyumlarining texnologik xususiyatlari, ularning shakli, loy tarkibi, pishirish usullari hamda bezak elementlaridagi o‘zgarishlarga qaratilgan. Shuningdek, to‘qimachilik hunarmandchiligi, gazlama turlari, jun va ipak mahsulotlari, poyabzal, palos va boshqa kundalik buyumlar tahlil qilinadi. Arxeologik topilmalar asosida aholining xo‘jalik faoliyati, hunarmandchilik an‘analari va ijtimoiy-maishiy hayoti haqida ilmiy xulosalar chiqariladi.

Kalit so‘zlar. Afrig‘iylar davri, Xorazm vohasi, sopol buyumlar, xumlar, hunarmandchilik, to‘qimachilik, moddiy madaniyat, ilk o‘rta asrlar.

Аннотация. В статье рассматриваются особенности материальной культуры Хорезмского оазиса в раннесредневековый период (V–IX вв.), в эпоху правления афригидов. Основное внимание уделено технологии изготовления керамических изделий, их формам, составу глины, способам обжига и декоративным элементам. Наряду с этим анализируются данные о развитии ткачества, видах тканей, изделиях из шерсти и шелка, обуви, палосах и других предметах повседневного быта. На основе археологических материалов делаются выводы о хозяйственной деятельности, ремесленных традициях и социально-бытовой жизни населения региона.

Ключевые слова. эпоха афригидов, Хорезмский оазис, керамика, хумы, ремесло, ткачество, материальная культура, раннее средневековье.

Abstract. This article examines the material culture of the Khorezm Oasis during the Early Medieval period (5th–9th centuries), particularly in the time of Afrigid rule. The study focuses on the technological characteristics of ceramic production, including vessel shapes, clay composition, firing techniques, and decorative features. In addition, evidence related to textile production, types of fabrics, wool and silk materials, footwear, palos rugs, and everyday household items is analyzed. Based on archaeological findings, the article provides

insights into the economic activities, craft traditions, and socio-daily life of the local population.

Keywords. Afrigid period, Khorezm Oasis, ceramics, storage jars, craftsmanship, textile production, material culture, Early Middle Ages.

Kirish. Ilk o‘rta asrlar Markaziy Osiyo tarixida siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarning jadallashuvi bilan ajralib turadi. Mazkur davrda Xorazm vohasi hududi o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy tizimga ega bo‘lib, Afrig‘iyalar sulolasi hukmronligi ostida rivojlangan. Aholining xo‘jalik faoliyati, hunarmandchilik tarmoqlari va kundalik turmush tarzini aks ettiruvchi moddiy madaniyat namunalarini o‘rganish ushbu davr tarixini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Xususan, sopol buyumlar, to‘qimachilik mahsulotlari, poyabzal, uy-ro‘zg‘or buyumlari va boshqa arxeologik topilmalar orqali jamiyatning ishlab chiqarish darajasi, texnologik imkoniyatlari hamda estetik qarashlarini aniqlash mumkin. Afrig‘iyalar davri sopol buyumlari antik davrga nisbatan texnologik jihatdan soddalashgan bo‘lsa-da, ular o‘ziga xos shakl va funksional xususiyatlarga ega bo‘lib, mintaqaviy rivojlanish jarayonlarini aks ettiradi.

Adabiyotlar tahlili. Xorazm vohasining ilk o‘rta asrlar moddiy madaniyatini o‘rganishda arxeologik tadqiqotlar muhim ilmiy manba hisoblanadi. XX asrning o‘rtalaridan boshlab olib borilgan Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi natijasida hududdagi ko‘plab yodgorliklar aniqlanib, ularning moddiy madaniyatga oid boy ashyoviy materiallari ilmiy muomalaga kiritilgan.

Tadqiqotlarda asosan sopol buyumlarning texnologik xususiyatlari, ularning shakli, bezaklari va loy tarkibi asosida xronologik hamda tipologik tasniflar ishlab chiqilgan. Ayrim tadqiqotchilar Afrig‘iyalar davri sopol idishlarini antik davr an‘analari bilan qiyosiy tahlil qilib, bu davrda ishlab chiqarish texnikasining soddalashuvi va mahalliy xususiyatlarning kuchayganligini qayd etganlar.

Metodologik asoslari. Mazkur tadqiqot tarixiylik, tizimlilik va ilmiy xolislik tamoyillariga asoslanadi. Tadqiqot jarayonida Xorazm vohasining ilk o‘rta asrlarga oid moddiy madaniyatini o‘rganishda umumilmiy va maxsus arxeologik metodlar majmuasidan foydalanildi.

Arxeologik tahlil metodi yordamida sopol buyumlar, to‘qimachilik ashyolari va boshqa moddiy madaniyat namunalarining shakli, hajmi, bezagi hamda ishlab chiqarish texnologiyasi aniqlanib, ularning funksional va madaniy ahamiyati baholandi. Qiyosiy-tarixiy metod orqali Afrig‘iyalar davri buyumlari antik va keyingi o‘rta asr materiallari bilan solishtirilib, ularning rivojlanish bosqichlari va mintaqaviy xususiyatlari belgilandi.

Tahlil. Afrig‘iyalar davri sopol buyumlari antik davrga nisbatan ishlanish jihatdan ham loyining tarkibi jihatdan ham sifati pastligi bilan farq qilgan. Ilk o‘rta asrlarda keng tarqalgan sopol idish charxda ishlangan suv solinadigan ko‘zalar bo‘lgan. Ular tuxumsimon ko‘rinishda bo‘lib, pastki qismi tor bo‘lgan, devorlari qavariq, bo‘yin qismi past, ba‘zan tor, ba‘zan keng

qilib ishlangan, gardishi esa, kesmasida uchburchak shaklda bo‘lgan. Tutqichi keng, tekis bo‘lib, pastdan tepaga qarab kengayib ketgan. Sopol idishlarining ranggi to‘q sarg‘ish – jigarrang bo‘lib, yuza qismi ham shunday rangda bo‘lgan. Sopol buyumlarda angob yoki biror bir rang ishlatilmagan. Xumlarni tayyorlashda ishlatiladigan loylarida mayda toshlar va sopol siniqlar bo‘lgan. Dastlabki davrlarda xumlar yaxshi, bir tekis pishirilmagan, singan xumlarning devorida qora chiziq ko‘rinib turgan. Afrig‘iylar hukmronligining dastlabki davrlarida xumlarning gardishi qo‘lda ishlanib, burma holda tashqariga ko‘proq qayilib chiqarilgan holda va gardish bo‘ylab ikki qator bo‘rtib turgan gorizontall chiziqlari bo‘lgan. Bu davr xumlarining bo‘ynida aylanma tarzda ikki qator qovurg‘asimon bo‘rtiqlar bo‘lgan. Undan ham oldingilarida bo‘rtiqlarning usti yoki ostida to‘lqinsimon chiziqlar bo‘lgan. Yodgorlikning so‘nggi bosqichida xumlardagi bunday bezaklar yo‘qolib ketgan. Xumlarning qorin qismlari chiziqli-to‘lqinli bezaklar bilan qoplangan.

VII-IX asrlarga oid xumlarning ishlanish uslubida o‘zgarishlar kuzatilgan. Ular tekis ishlangan, loyida turli xil qo‘shimchalar bo‘lmagan va pishirish jarayoni ham bir xil kechgan. Yuzasi silliq bo‘lib, oqish rangli bo‘lgan. Hajm jihatdan katta bo‘lib, xech qanday bezak berilmagan. Gardishlari kesmada oval shaklida bo‘lib, pastki qismi ikki qator barmoq izlari tushirilgan shaklda yoki chuqur qiyali teshikchalar shaklida bezak berilgan. Xumlar tuxumsimon shaklda bo‘lib, ostki qismi biroz bo‘rtib chiqqan, yelka qismi bilan silindirik bo‘yin qismi o‘rtasi aniq egilgan burchak asosida birlashtirilgan.

Qo‘lda ishlangan sopol idishlar charxda ishlangan sopol idishlarga nisbatan ko‘pchilikni tashkil qiladi. Qo‘lda qo‘pol tarzda asosan, qozonlar, qora- jigarrang rangdagi tuvaklar ishlangan.

Chap qirg‘oq Katqal’adan asosan yirik xumlar, xumchalar, oshxona va o‘choqboshi idishlari topilgan[4,B.74.]. Xumlarning g‘ardishi oval shaklida bo‘lib, bo‘g‘iz qismi baland, gavdasi keng qilib ishlangan. Gardishi bo‘rtiq chiziqlar bilan aylantirilgan bo‘lib, barmoq bosimi yordamida ikki qator qilib ishlangan. Xumlarning loy tarkibiga mayda shag‘al va gips qo‘shib ishlangan. Xumning yuzasida mayda g‘ovoklar bo‘lib, usti qo‘ng‘ir -yashil tusda bo‘lgan. Xumlarning loyiga yaxshi ishlov berilmasdan ishlangan. Bunday xumlar Xorazm vohasining VII-VIII asrlarga oid xumlariga o‘xshaydi.

Xumchalarning loy tarkibida ham ko‘plab qo‘shimchalar bo‘lib, loy tarkibi sifatli bo‘lmagan. Baland, keng bo‘g‘izli bo‘lib, gardishi yirik yarim oval bo‘ltiq chiziqlar bilan aylantirilgan. Xumchalarning yuza qismi kulrang yoki yashimtir angob bilan bo‘yalgan. Bunday xumlar Xorazmning V-VIII asrlariga oid[1].

Ilk o‘rta asrlarda xurmasimon idishlar ham bo‘lgan. Ular ikki turda bo‘lib, gardishi manjetsimon, ikki bo‘rtiq chiziqli ichkariga qayirligan va bankasimon shaklda bo‘lgan. Ikkinchi turida gardishi deyarli bo‘yinga ega bo‘lmagan sferik shakldagi turi hisoblanadi. U uchburchak – ovalsimon shaklga ega bo‘lgan. Ko‘zalari baland bo‘g‘izli bo‘lib, ovalsimon shaklda bo‘lgan. Uning loyining sifati yaxshi bo‘lib, loy tarkibida gips aralastirgan. Ko‘zalar to‘q sariq rangdagi angob bilan bo‘yalgan. Bunday ko‘zalar VII-VIII asrlarga oid bo‘lgan.

Natijalar. Ilk o‘rta asrlarga oid yirik idishlardan biri yana tog‘ora bo‘lib, u konus shakliga ega, ichki qismi chuqur va katta. Gardishi bo‘ylab barmoq bosimi yordamida bezak berilgan. Loyining tarkibida gips, shag‘al qo‘shilgan. Tog‘oraning tashqi tomoni to‘q sariq rang bo‘yalgan. Bunday tog‘oralar Xorazmda so‘nggi antik davrda paydo bo‘lgan bo‘lib, milodiy III, VI-VIII, IX asrlarga oid yodgorliklardan ham topilgan[5, B.76.].

Ilk o‘rta asrda shish shaklida yopishtirilib ishlangan kichik hajmdagi idishlar ham topilgan. Bu bezak antropomorf bezak turi bo‘lib, tadqiqotchilar ayollar ko‘kragiga nisbat berishgan deb ko‘rsatishadi. Bunday bezaklar mahalliy aholi tilida “chicha”, “beshak” deb nomlangan.

Teshik-qal‘aning hovlisidan yirik temirdan ishlangan uchparakli chereskali o‘q uchlari topilgan. Afrig‘iylar davrida o‘q uchlar faqat bronzadan emas, temirdan ham ishlangan. Bu davrda don yantishda yorg‘uchoqlardan emas, balki qo‘lda aylanadigan tegirmonlardan foydalanganlar.

Teshik qal‘adan nihoyatda ko‘p sopol siniqlari topilgan. Bular antik davr sopol idishlaridan tubdan farq qilgan. Xumlar ham o‘ziga xos tarzda ishlangan. Uning gardishi qiya tarzda ishlangan bo‘rtmalar bilan bezatilgan. Juda ko‘p suv olib kelinadigan idishlar topilgan. Ularning osti kichik bo‘lib, qorin qismi do‘ng bo‘lib chiqqan, dastasi yuqoriga qarab kengaytirilib ishlangan. Xo‘jalikda ishlatilgan sopol idishlar ham ko‘plab topilgan, ularning aksariyat qismi charxsiz qo‘lda ishlangan.

S.P.Tolstov tomonidan matoning ko‘plab kichik parchalari, ikkita yog‘ochdan ishlangan taroq, suyakdan ishlangan belbog‘ to‘g‘nog‘ichi, o‘yib ishlangan plastinkaning bir bo‘lagi, bolalar o‘yinchog‘i, qo‘yning haykalchasi, mis uzuk va munchoqlar topilgan.

Tadqiqotchilar ilk o‘rta asrlarga oid yodgorliklardan gazlama qoldiqlarini topishgan. Bu esa, hududda to‘qimachilik hunarmandchiligi ham bo‘lganligini ko‘rsatadi. Ipak mato qoldig‘i qam topilgan. Faqat sariq rangli ipak gazlama qoldig‘i aniqlangan. Gazlamalar yupqa va yaxshi sifatli paxtadan, jun va ipakdan tayyorlangan. Paxtadan tayyorlangan gazlamalar ko‘plab aniqlangan. Ular bugungi kunda gazlamalardan deyarli farq qilmagan, bunday paxtadan ishlangan gazlama qoldig‘i Mug‘ tog‘idan ham topilgan. Bu esa, ilk o‘rta asrlarda gazlama tayyorlashda hududlar o‘rtasida farqlar kam bo‘lganligini ko‘rsatadi. Bunday gazlama turi “mato” deb nomlangan. U bir xil yoki turli xil qalinlikdagi iplardan zich qilib to‘qiladi. To‘qilish uslubi oddiy bo‘lib, ko‘pincha oq rangdagi gazlamani to‘qishgan. Mato qoldiqlari Teshiqal‘adan va 36 raqamli qo‘rg‘ondan aniqlangan. U yerdan oq xalatning orasida jun mato qoldiqlari bilan birgalikda topilgan. Yakka Parsonning Dojondagi bir xonasidan ayollarning lozimining parchasi topilgan. Uning barcha qismi bir xil matodan tayyorlangan. Agar lozimning keyingi davrlardagi bichimiga e‘tibor bersak, uning tepa tomoni boshqa gazlamadan pastki qismi sifatli, guldor bo‘lgan boshqa gazlamadan foydalangan holda tikilgan. Lekin ilk o‘rta asrlarda bunday uslub bo‘lmaganligi ko‘rishimiz mumkin. Gazlamaga gulni tushurishda gullari bo‘rttirib to‘qilgan. Bir xil gul butun gazlama bo‘ylab aniqlangan. Topilgan gazlamada qo‘y shohlari ramziy ravishda ishlangan[3, C.98.].

Jun gazlamalarning bir necha turi aniqlangan. 1. Och va qoramtir iplar aralashmasi asosida zich to‘qilmagan gazlamalar. 2. Qalin ipdan tayyorlangan gazlamalar. 3. Bir xil rangli iplardan tayyorlangan gazlamalar bo‘lib, uning ipining tarkibida qalin iplar kam ishlatilgan. 4. Ikkita ipni bitta qilib to‘qilgan gazlamalar. 5. Bir xil ipdan ishlangan, lekin ular uch marta aylantirilib to‘qilgan. Jun gazlamalardan kiyimlar tikilgan. Ular ignaning izlari ham aniqlangan. Jundan gazlama to‘qishda ikki tomonida tishi bo‘lgan yog‘och taroqlardan ishlatishgan. Taroqni junni tarashda ishlatishgan. Xuddi shunday texnologiya bugungi kunda qo‘llaniladi. Jun taroq bilan tarab tekis qilingach, to‘qiladi. Taroq 17x12 sm. hajmda bo‘lgan. Ular Teshikqal’a, Yakka-Parsondan topilgan.

Xulosa. Ilk o‘rta asrlarga oid yodgorliklar ko‘plab urchuq toshlari ham topilgan. Bu to‘qimachilikning bu davrda rivojlanganligini ko‘rsatadi. Tadqiqotchilar tomonidan deyarli har uyda bir xona to‘qimachilik uchun ajratilgan. Demak, har bir oila o‘z ehtiyojlari uchun gazlama to‘qiy olgan. Urchuq toshlari asosan, tekis doirasimon shaklda bo‘lganlari keng tarqalgan. Uning biokonik va konik shakllaridagi antik davrdagi yodgorliklardan ham topilgan.

Teshikqal’a, Yakka -Parson, 36 va 11 sonli qo‘rg‘onlardan ilk o‘rta asrlarga oid teridan ishlangan poyabzallarning qoldiqlari ham topilgan. U davrdagi oyoq qiyim qanday shaklda bo‘lganligini ham aniqlash imkonini bergan. Uning shakli XIX asr va XX asrning boshlarida O‘rta Osiyo aholisi kiygan poyabzallardan farqi bo‘lmagan. Uning old qismining uchi biroz tepaga ko‘tarilgan, orqa tomoni uzun teri bilan aylantirib tikilgan. Poyabzal tilkilgan teri yumshoqligi bilan ajralib turgan. Shu asosda tadqiqotchilar bu yerdan topilgan poyabzal yo ayolga yoki yosh bolaga tegishli bo‘lgan bo‘lishi mumkin degan fikrga kelishgan. 11 sonli qo‘rg‘ondan etik qoldig‘i topilgan. Bu etikning tagi yumshoq qilib ishlangan, uchi biroz tepaga qayilgan qilib tikilgan. Umuman etik va poyabzallarning uchi qayilib ishlanishi barcha sharq xalqlariga xos uslub hisoblangan.

Palosning ham bir necha turlari aniqlangan. Palos bu tuqsiz gilam bo‘lib, asosan qo‘lda to‘qilgan. 1. Yo‘l yo‘l palos bo‘lib, u turli hajmdagi iplardan to‘qilgan. 2. Oddiy uslubda to‘qilgan palos. 3. To‘rsimon tarzda to‘qilgan. Paloslar turli murakkab naqsh bilan bezatilgan. To‘qishda turli ranglardan foydalanilgan. Teshikqal’adan topilgan palosning naqshi murakkab bo‘lib, unda doiralar va uning o‘rtasida rozetka ishlatilgan[2,C.98.].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Неразик Е.Е. Керамика Хорезма афригидского... – С. 236–239, рис. 1, 5; рис. 3, 2.; Неразик Е.Е. Сельские поселения ... – Рис. 12, 15-16.
2. Неразик Е.Е. Сельские поселения Афригидского Хорезма. – С.98.
3. Неразик Е.Е. Сельские поселения Афригидского Хорезма. – С.98.
4. Садуллаев Б.П. Чап қирғоқ Кат-қалъа Хоразмнинг қадимги ва ўрта асрлар шаҳри. – Б.74.

5. Садуллаев Б.П. Чап қирғоқ Кат-қалъа Хоразмнинг қадимги ва ўрта асрлар шаҳри.
– Б.76.